



UDK: 159.9(575.1)

*Umida NIZAMOVA,*  
*Andijon davlat texnika instituti dotsenti v.v.b, PhD*  
*E-mail:umidanizamova18@gmail.com*

*KUAF professori, PhD A.Mamatqulov taqrizi asosida*

### PRODUCTIVE METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO STUDENTS

Annotation

In recent years, in world pedagogy, the creation and introduction of modern pedagogical technologies for the formation, development and improvement of students' professional competencies in language levels and their introduction into the education system has become a priority of education. In the current situation in all higher education institutions, communicative competence is the basis for fundamental professional training of students. In addition, learning foreign languages based on the principles of productive teaching methods ensures the creative development and self-awareness of students using the linguodidactical technology developed by us. The content of this linguodidactic technology is revealed in the system of professional training of students studying in higher education institutions.

**Keywords:** Communicative, productive method, foreign language, linguodidactic technology, professional competence, productive.

### ПРОДУКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Аннотация

В последние годы в мировой педагогике создание и внедрение современных педагогических технологий формирования, развития и совершенствования профессиональных компетенций студентов по языковым уровням и внедрение их в систему образования стало приоритетным направлением образования. В сложившейся ситуации во всех высших учебных заведениях коммуникативная компетентность является основой фундаментальной профессиональной подготовки студентов. Кроме того, изучение иностранных языков на принципах продуктивных методов обучения обеспечивает творческое развитие и самосознание студентов с использованием разработанной нами лингводидактической технологии. Содержание данной лингводидактической технологии раскрывается в системе профессиональной подготовки студентов, обучающихся в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** Коммуникативный, продуктивный метод, иностранный язык, лингводидактическая технология, профессиональная компетентность, продуктивный.

### TALABALARGA CHET TILLARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI

Аннотация

So'nggi yillarda jahon pedagogikasida talabalarni til sathlariga doir kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishga doir zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish hamda ta'lim tizimiga joriy etish ta'limning bosh ustuvor vazifasiga aylandi. Barcha oliy ta'lim muassasalarida hozirgi sharoitda kommunikativ kompetentsiya talabalarining fundamental kasbiy tayyorgarligi uchun asos bo'ladi. Bundan tashqari, mahsuldor o'qitish usuli tamoyillari asosida chet tillarni o'rganish biz tomonidan ishlab chiqilgan linguodidaktik texnologiya yordamida o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi va o'zini o'zi anglashini ta'minlaydi. Oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talabalarining kasbiy tayyorgarligi tizimida ushbu linguodidaktik texnologiyaning mazmuni ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Kommunikativ, mahsuldor usul, chet tili, linguodidaktik texnologiya, kasbiy kompetentsiya, produktiv.

**Kirish.** Ingliz tilini o'rganish jarayoni asta-sekin hamda progressiv jarayon bo'lib, uni o'rganishda bir qator qiyinchiliklarga duchor bo'linadi. Shuning uchun ham mazkur jarayonni amalga oshirishda muayyan ko'nikmalarni rivojlantirish zarur bo'ladi. Bu ko'nikmalar umumiy doirasiga ko'ra, produktiv va reseptivga bo'linadi. Qabul qilish qobiliyatlarini o'qish va tinglashni o'z ichiga oladi. Chunki ular o'quvchilarga darsliklarni, asarlarni, yoki hujjatlarni mazmunini tushinishga imkon beradi. Produktiv ko'nikmalar gapirish va yozuvdan iborat bo'lib, ular muhim ahamiyatga ega, chunki bunday ko'nikmalar o'quvchilarga og'zaki taqdimotlar, yozma tadqiqotlar va boshqalar qatori hisobotlar kabi kommunikativ jihatlarida ishlashga imkon beradi. Shuning uchun ushbu ko'nikmalarni to'g'ri rivojlantirish va o'rganishni talab etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Produktiv o'qitish o'quvchilarni kasbiy yo'naltirish konsepsiyasini joriy qilish bilan bog'liq bo'lib, AQSh va Yevropa mamlakatlarida o'rta va oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan ta'lim tizimi (mehnatga asoslangan ta'lim) sifatida keng tarqalgan. Bunday ta'lim maktab va kasbiy ta'lim o'rtasidagi uzviylikni mustahkamlash, rivojlanish muammolarini hal qilish imkonini beradi [1]. Bundan tashqari, yigirmadan ortiq mamlakatda produktiv ta'lim va turli xil tegishli ta'lim loyihalarini amalda

qo'llash natijalari ularning samaradorligi va muvaffaqiyatini isbotladi.

So'nggi yillarda produktiv metod, uni tekshirish va ta'limning turli bosqichlariga joriy etish bo'yicha katta hajmdagi ilmiy ishlar amalga oshirildi [2].

Jumladan, chet tillarni o'qitishda metodist olimlar N.I.Almazova va A.V.Rubsovalar tomonidan nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining chet tillarni egallash samaradorligini oshirish maqsadida produktiv yondashuvning quyidagi tarkibiy qismlari ishlab chiqildi [3]:


1. Oliy ta'lim muassasalarida samarali chet tili ta'limining falsafiy-pedagogik komponenti.
2. Mahsuldor chet tili ta'limining paradigma-maqsadli komponenti.
3. Chet tilini samarali o'qitishning funksional va texnologik komponenti, shu jumladan o'rnatilgan o'quv modullari tizimi.
4. Samarali yondashuv asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturlarini o'z ichiga olgan kontent komponenti.

Bizning fikrimizcha, produktiv o'qitishga erishish uchun ta'lim samaradorligini ta'minlaydigan maxsus ta'lim texnologiyalari va tegishli usullarni yangilash va rivojlantirish kerak bo'ladi.

Olimlarning tadqiqotlari natijasida chet tilni samarali o'rganishning innovatsion uslubiy modeli akademik soatlarni qisqartirish sharoitida talabalarni chet tilida samarali o'qitishni ta'minlash vositasi sifatida qaraladi va bu bilan talabalarning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi degan xulosaga keladilar.

Shuni ta'kidlash joizki, produktiv yondashuv atamasi 1991-yilda "International Network of Productive Schools" ikkinchi kongressida muomalaga kirgan. Ushbu atamaning zamonaviy talqini I.Boxm va J.Shnayder tomonidan aniqlangan bo'lib, ular produktiv ta'limni shaxsning rivojlanishiga va jamiyatni yaxshilashga olib keladigan o'quv jarayoni sifatida tushunadilar. Shu bilan birga, mahsuldorlikka yo'naltirilgan ta'lim jarayoni moslashuvchan bo'lib, ya'ni topshiriqlar real hayotda uchraydigan vaziyatlar asosida, yakka va guruhli o'qitish doirasida o'qituvchi tomonidan boshqariladigan va ma'lum bir ta'lim mahsulotini yaratishga qaratilgan [4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** "Ijtimoiy gumanitar" soha yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun produktiv usulni afzalliklari yoritilgan bo'lib, ularni quyidagi rasm yordamida ko'rishimiz mumkin. Chunki produktiv metodi orqali o'qitishda bir qancha muvaffaqiyatlarga erishiladi;



1.1-rasm. Produktiv yondashuv afzalliklari

**Tahlil va natijalar.** Kommunikativ kompetensiya bilim, malaka va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Ingliz tili o'rganishda esa to'rt asosiy ko'nikmalar mavjud bo'lib, ular tinglash, gapirish, o'qish va yozuvdir. Bu haqida gapirganda ma'lumotning har qanday darajasida ingliz tilidan foydalanib, u boshlang'ich, o'rta yoki uchinchi darajali bo'lsin, bu ko'nikmalarning har biriga teng ahamiyat beradigan tilning to'rtta ko'nikmasini o'rgatishni talab qiladi [7].

N.D.Galskova va N.I.Gezlarning tadqiqotlarida keltirilishicha, gapirishga o'rgatishning muvaffaqiyati o'quvchilarning individual yosh xususiyatlari (ularda o'qishga bo'lgan qiziqishning mavjudligi, diqqat e'tibor, og'zaki muloqot usullaridan foydalana olish, har doimgi til tajribasiga suyanish), matnning lingvistik, diskursiv jihatlari, shuningdek, o'qitishning shart-sharoitlari (o'qitishda texnik vositalarning mavjudligi, mashqlarning o'qitish muammolariga, shart-sharoitlariga bog'liqligi, mashg'ulotlarni juftlikda va guruhlar asosida tashkil qilish va boshqalar)ga bog'liq bo'ladi [8].

Shuningdek, mahsuldor va izlanuvchanlikni rivojlantirishda ingliz olimi A.Romishevski quyidagilarni (variant) taklif qildi:

- talabalarni kerakli bilimlardan xabardor qilish;
- yodda qolgan bilimlarni tiklashdagi mahoratni shakllantirish;
- mavzuni soddalashtirish orqali mahoratni oshirish (vazifa va topshiriqlarni bo'laklarga bo'lish);
- mustaqil ta'lim turi hamda talabaning ijobiy natijalarini munosib rag'batlantirish;

Ma'lumki, oliy ta'limda hanuzgacha tushuntirish-ko'rgazmali yondashuv usuli qo'llanilib kelmoqda, bu talaba to'plagan bilimlar yig'indisini mustahkamlashga ko'maklashadi.

Hozirgi kunda reproduktiv o'qitish ikkinchi darajali deb qaralmoqda. Lekin aksariyat odamlar aynan reproduktiv mehnat bilan shug'ullanishadi, aks holda jamiyat o'z-o'zini eng zarur narsalar bilan ta'minlay olmas edi. O'qitishda tarbiyalanuvchilarning reproduktiv faoliyati asosiy o'rinni egallashi lozim, faqat shu shart bajarilganda zaruriy bilimlarni o'zlashtirish va bu orqali ijodga zamin yaratish mumkin [5]. Produktiv usullarga nisbatan reproduktiv usullarning qo'llanishi ijodiy shaxsga bo'lgan talablarni pasaytiradi, shuningdek, o'quv masalalari talabalarga kelajakni loyihalashga ko'maklashish o'rniga o'tmishni o'rganishga undaydi.

Nofilologik yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar ham ingliz tilida muloqotni amalga oshirishga majburlidirlar. Ularning ko'pchiligi ingliz tilini xalqaro muloqotning asosiy tili sifatida o'rganmoqda. Shu munosabat bilan, produktiv usul kasbiy ta'limda bir nechta tillarning konstruktiv o'zaro ta'sirini ta'minlaydi, bu esa talabalarning muloqotini rivojlantiradi. qabul qilishga va mulohaza yuritishga omil bo'lib xizmat ko'rsatadi [6]. Buning natijasida produktiv va izlanuvchanlik yondashuvlar yanada samaraliroq bo'lishiga zamin yaratadi. (1.1-rasmga qarang):

- mahsuldor, izlanuvchan yondashuvni joriy qilish;
- turli hil muammoli vaziyatlarni tashkil etish, no'anaviy va o'ziga xos masalalarni yechishga o'rgatish.

Chet tilni o'qitish bo'yicha qator ishlar mullifi A.N.Shukin muloqot insonlar o'rtasida faol subyektlar kabi axborotlar almashinuvi jarayonining o'ziga xosligini, ya'ni nutq hamkorlari o'rtasidagi munosabatlarning qanday yo'lga qo'yilganligini hisobga olgan holda ularning maqsadlari, xohishlariga bog'liq bo'lishini, bu esa muloqot jarayonida yangi bilimlar, ma'lumotlar, fikr va mulohazalarning boyishiga ham olib kelishini nazarda tutadi. Lingvist olim "muloqot insonlarning til orqali aloqa qilish, o'zaro harakatlarining shakli, kommunikatsiya vositasi va axborotlarni uzatish usulidir" deya ta'riflaydi [9].

Bizning fikrimizcha, talabalarni ingliz tilida ravon muloqot qilishi uchun ularning kuchli tinglash salohiyatini rivojlantirish muhim omillardan hisoblanadi. Tinglash nafaqat odamlarning gaplarini tushunishga, balki boshqa odamlar bilan ravon gaplashishga ham yordam beradi [10]. Bu so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni, intonatsiyani qanday ishlatishni, so'zlar va jumalarni qayerga joylashtirishni o'rganishda yordam beradi. Bu nutqni va boshqa odamlarning tushunishni osonlashtiradi.

O'tkazilgan tadqiqotlar binoan yurtimiz OTmlarida xorijiy tillarni samarali o'rganishning asosiy metodik yo'nalishlarini aniqladik, mahsuldor lingvodidaktik texnologiya mazmunini tahlil qildik, Shaxsiy ko'p tilli portfelning konseptsiyasi va mazmunini ishlab chiqdik va pedagogik tajriba o'tkazdik.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda yuqorida tahlilga tortilgan o'quv adabiyotlarda produktiv o'qitish va

izlanuvchan yondashuvi uzviy bog'liq bo'lib, ular asnosida darslarni tashkil etilishi talabalarning tadqiqotchilik hamda ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Talabalarga xorijiy tillarni o'rgatishning ishlab chiqilgan innovatsion samarali usuli oliy ta'limning integratsiyasi va samaradorligini ta'minlaydi. Chet tillarini o'qitishning samarali usuli oliy ta'limning innovatsion

elementi hisoblanadi, chunki u metodik resurslarni yangilash nuqtai nazaridan yetarli darajada tarbiyaviy salohiyatga ega. Chunki, "samarali o'rganish - bu bilim oluvchilarning bir-birlariga ma'lumot o'rgatish uchun guruhlar bo'lib ishlashlari va o'qituvchi tomonidan boshqarilish usulidir. Buni yuqorida keltirilgan til va nutq mashqlarini amalda qo'llash bilan o'z maqsadimizga erishdik.

#### ADABIYOTLAR

1. Richards J.C., Rodgers T.R. Implementing the curriculum with Cambridge: A guide for school leaders, *Approaches and Methods in Language Teaching*, 2nd ed. New York: CUP, 2004. – 244 p.
2. Коряковцева Н.Ф. Основы организации изучения иностранного языка учащимися на базе развития продуктивной деятельности. Автореф. дис. ... док. пед. наук. Москва, 2003. – 52 с.
3. Гольдина М.Н. Формирование продуктивного педагогического мышления студента будущего учителя. Автореф. дис. канд. пед. наук. Самара, 2003. – 25 с.
4. Almazova N.I., Eremin Y.V., Rubtsova A.V. Productive linguodidactic technology as an innovative approach to the problem of foreign language training efficiency in high school. // *Russian linguistic bulletin*. 2016. №3. 50 – 54 p.
5. Попова Н.В., Коган М.С., Вдовина Е.К. Предметно-языковое интегрированное обучения (CLIL) как методология актуализации междисциплинарных связей в техническом вузе. // *Вестник Тамбовского университета. Серия Гуманитарные науки*. № 173. Тамбовск, 2018. 29-37 с.
6. Aitov V.F., Aitova V.M. Ways of problematization in project approach. // *Materials of XI All-Russian scientific-practical conference with international participation 'Foreign languages learning: actual issues and perspectives'*. – Ufa-Saint-Petersburg-Aktobe: 2017, 44–50 p.
7. Il'in, E.P. (2009) *Psixologiya tvorчества, kreativnosti, odarenosti* [Psychology of creativity, creativity, giftedness]. Sankt Peterburg: Piter.
8. Gin, A.A. (2004) *Priemy pedagogicheskoy tekhniki* [Methods of pedagogical technique: a manual for teachers]. Moscow: Vita-press.
9. Nestrenko, A.A., Shiravyov V.A. (2007) *TRIZ-pedagogika* [TRIZ-pedagogy]. In: *Mezhvuzovskij sbornik nauchnyh tudov* [Interuniversity collection of scientific institutes]. Saratov. Pp 71-75.
10. *Shabanov J.* Chet tilini o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari. - Toshkent: 2009. – 159 b.